

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSİYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi



**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

M.F.Gaybullayeva

No'xat navlarini o'sishi, rivojlanishi bilan oziqlantirish me'yorlarining ta'siri bo'yicha olib borilgan mahalliy va xorijiy ilmiy tadqiqotlar 835

Sh.M.Xalmatova, G.M.Maxsudova

Sun'iy quvursimon kovaklardan foydalanib suv eroziyasiga qarshi kurashning samarasi 838

M.T.Abdullayeva, F.R.Qurolova

Farg'ona viloyati adirlarida tarqalgan o'simlik turlari 841

S.A.Mamatqulova, T.E.Usmanova, I.R.Asqarov

Determination of the amount of paulownia flowers and vitamins in their composition 847

M.T.Abdullayeva, M.Nazarov

Tuproqni sog'lomlashtirishda mikroorganizmlar va mayda hayvonlarning ahamiyati 850

M.Nazarov Mamadali, Sh.M.Khalmatova

Soil pollution by waste and measures to it prevent 854

D.M.Ahmedova, M.A.Boynazarova, H.S.Turdimatova

Hovuz biotsenozining ekologik xususiyatlari 857

D.M.Ahmedova, H.S.Turdimatova

Tut o'simligi navlarining bioekologiyasi 862

Sh.M.Xalmatova, G.M.Maxsudova

O'quvchilarda ekologik tarbiya berishda sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlar 868

ILMIY AXBOROT**Z.V.Alimova, M.A.Usmanova**

Navoiyning "Saddi Iskandariy" asaridagi ayrim forscha-tojikcha leksemalar
va forsiy izofa haqida 871

X.A.Abdulxamidova, M.S.Sobirova

Isajon Sultoning "Ozod" romanida intertekstuallik 876

M.A.Jo'rayeva

Abdulla Avloniy ijodida safarnomaning o'rni 880

A.A.Qayumov, M.Sh.Abdurahimova

Qo'chqor Norqobil qissalarida psixologik tasvir va psixofiziologik holat masalasi 884

I.I.Rustamova, D.A.Abduvahobova

Isajon Sultonning "Boqiy darbadar" asarining badiiy xususiyatlari 887

A.G.Sabirdinov

Iqbol Mirzo she'riy mahorati haqida 890

A.A.Qayumov

Hastalangan ruhiyat tasviri 894

R.M.Umurzakov

Avtobiografik qissalarda bola obrazi 899

Q.V.Yo'lichev, A.Charos

Ulug'bek Hamdamning "Muvozanat" va georgiy pryaxinning "Sarob" romanlarida
ironiyaning o'rni 903

Z.V.Alimova

Navoiyning "Saddi Iskandariy" dostonidagi "Ganj" va "Gavhar" istilohlari bilan bog'liq
leksemalar xususida 907

G.A.Ikromova

Dramalar tilida antroponomislarning qo'llanilishi (Sharof Boshbekov dramalari misolida) 913

I.M.Naimjonova, Sh.A.Ganiyeva

Tilshunoslikda maydon tushunchasiga nazariy yondashuvlar 918

N.A.Abduvaliyeva

Alisher Navoiy g'azallarida qo'llangan fors-tojikcha so'zlarning tahlili masalasi 922

A.R.Dadajonov

Muhokama nutqining kompozitsion qurilishi 927

D.R.Teshaboyev

Havola bo'laklı ergash gapli qo'shma gaplarda mazmuniy qorishiqlik 930

I.T.Axmадjonov, A.R.Dadajonov

Kelishik shakllari sinonimiyasining semantik xususiyatlari 936



**NAVOIYNING “SADDI ISKANDARIY” ASARIDAGI AYRIM FORSCHA-TOJIKCHA
LEKSEMLAR VA FORSIY IZOPA HAQIDA**

**ABOUT THE PERSIAN-TAJIK WORDS AND PERSIAN IZAFET CONSTRUCTIONS IN
NAVOI'S EPIC “SADDI ISKANDARI”**

**О НЕКОТОРЫХ ПЕРСИДСКО-ТАДЖИКСКИХ СЛОВАХ И ПЕРСИДСКИХ ИЗАФЕТАХ
В ЭПОСЕ НАВОИ «САДДИ ИСКАНДАРИ»**

Alimova Zarifa Vaxobovna¹ 

¹Farg'ona davalat universiteti tilshunoslik kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Usmanova Muhabbat Abdullayevna² 

²Farg'ona davalat universiteti tilshunoslik kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya

Mazkur maqolada Navoiy asarlarining lingvistik tadqiqiga oid fikr-mulohazalar yuritilgan. Shu jumladan, Navoiy "Xamsa"sining so'nggi dostoni "Saddi Iskandariy" asari xususida, zullisonayn shoir sifatida adib o'z asarlarini turkiy va forsiy tillarda yozganligi, asarda qo'llangan forscha-tojikcha so'zlar, ularning lug'aviy ma'nolari, forscha-tojikcha sinonim va antonimlar, izofiy birliklarning qo'llanilishi, izofiy birliklarni qo'llashda arabiylar va forsiy so'zlarning faolligi haqida so'z boradi. Shuningdek, Navoiy asarlarida qo'llanilgan bog'lovchilar, olmoshlar, takrorlarning qo'llanilishi yuzasidan ham fikrlar bildirilgan. Shuningdek, forsiy izopa so'z tartibi vositasida yuzaga kelishi, bunday birikmalarda izopa elementi grammatik funksiya vazifasini bajarmay, bir so'z bilan birikib leksik birlikning ajralmas qismiga aylanishi, hozirgi o'zbek adabiy tilida izofiy birikmalarning aksariyati imloda qo'shib yozilishi haqida ham so'z yuritilgan.

Аннотация

Данная статья содержит комментарии к лингвистическому исследованию творчества Навои. В том числе идёт речь о последнем эпосе Навои «Хамса» «Садди Искандарий», о том что как поэт писал свои произведения на тюркском и персидском языках, используемые в произведении персидско-таджикские слова, их семантики, словарь значения, персидско-таджикские синонимы и антонимы, употребление единиц изафета, активность арабских и персидских слов в употреблении единиц изафета. Также были высказаны мнения об использовании союзов, местоимений и повторов, используемых в произведениях Навои. Кроме того, идёт речь о возникновении персидского изафета через порядок слов, элемент изафета в таких соединениях не выполняет функцию грамматики, а становится неотъемлемой частью лексической единицы путем соединения с одним проводимым словом.

Abstract

This article contains comments on the linguistic study of Navoi's creativity. Including Navoi's last epic "Khamsa" "Saddi Iskandariy", the fact that the poet as a poet wrote his works in Turkic and Persian languages, Persian-Tajik words used in the work, their semantics, a dictionary of meanings, Farsi-Tajik synonyms and antonyms, the use of superlatives, the activity of Arabic and Persian words in the use of superlatives. Opinions were also expressed on the use of conjunctions, pronouns and repetitions used in the works of Navoi. In addition, we are talking about the emergence of Persian izafet through word order; the izafet element in such compounds does not perform the function of grammar, but becomes an integral part of the lexical unit by connecting with one word.

Kalit so'zlar: ikki tillilik, forscha-tojikcha so'zlar, lug'aviy birlik, so'z semantikasi, sinonim, antonim, bog'lovchi, ot, sifat, son, olmosh, izofa, izofiy birlik, so'z etimologiyasi.

Ключевые слова: двухязычие, персидско-таджикские слова, лексическая единица, семантика слова, синоним, антоним, союз, существительное, прилагательное, число, местоимение, изафет, единица изафета, этимология слова.

Key words: bilingualism, Persian-Tajik words, lexical unit, word semantics, synonym, antonym, conjunction, noun, adjective, number, pronoun, izafet, izafet singular, word etymology.

KIRISH

Alisher Navoiy nafaqat bugun, o'z davrida ham mashhur bo'lgan. Uning asarlari dunyoning turli davlatlariga choparlar orqali jo'natilgan, savdo karvonlari kitoblarni uzoq o'lkalarga ham

ILMIY AXBOROT

Fors-tojik tilining o'zbek tiliga ta'sirini izofa deb nomlanuvchi grammatick tushunchada ham ko'rish mumkin. Ma'lumki, izofa ikki otning aniqlovchili munosabatga kirishuvidir. Masalan, o'zbekcha-forscha so'zlardan tashkil topgan izofiy birikmalarga *kimsayi notavon, telbai sarson, tarkibi tojikcha so'zlardan iborat bo'lgan izofiy birikmalarga ganji bebaho, obi diyda, padari buzrukvor, donasho'ra (donayi sho'ra), kulbayi vayrona kabilarni misol keltirish mumkin.*

Olamda bilimdir ganji bebaho,

Kim bilim egasi – o'sha podsho (Hikmatlar shodasi, Tusiy, 291-bet).

Arabcha so'zlardan iborat bo'lgan izofiy birikmalar: *amri ma'ruf, baloyi nafs, husni jamol, ayni muddao, sohibjamol, sahroyi kabir, hadisi sharif, taqsiri olam, oyati karima, iydi ramazon, ahli solih* va hokazo. Masalan: *Parvardigorm, o'zing men uchun surriyotimda ham yaxshilik qilgin, ya'ni farzandlarimni ham ahli solih bandalaringdan qilgin* (T.Malik, Odamiylik mulki, 70-bet).

Arabcha-tojikcha so'zlardan iborat izofiy birikmalarga quyidagilarni misol qilish mumkin: *duoyi bad, duoyi jon, nuri diyda, kurrayi zamin, sadqai sar, fasli bahor, baloyi nogahon* va hokazo [14, 365]. Ba'zan o'zbek tilida *duoyi bad, duoyi jon* izofiy birikmalari qo'shib yozilishi, birikmadagi -y izofa ko'rsatkichining -y qismi tushib qolish hollari ham kuzatiladi: *Berahmligi uchun qarindoshlari duoibad qilmaslaridan avval ularga uzr aytib boradigan solihlardan qilgin bizlarni* (T.Malik, Odamiylik mulki, 103-bet).

Manbalarda keltirilishicha, *fasli bahor, koni zyon, bog'i eram, dardi bedavo* kabi birikmalarda sintaktik aloqa ma'lum ma'noda saqlangan bo'lib, u izofa elementi - i (- yi) orqali emas, balki so'z tartibi vositasida yuzaga keladi. Bunday birikmalarda izofa elementi grammatick funksiya vazifasini bajarmay, bir so'z bilan birikib leksik birlilikning ajralmas qismiga aylangan.

Hozirgi o'zbek adabiy tilida izofiy birikmalarning aksariyati imloda qo'shib yoziladi: a) *abro'kamon, xamirturush, ro'yob, poydevor, poyustun, dilshikasta* kabi so'zlarda izofa ko'rsatkichi -i(-yi) qo'llanmaydi; b) *dardisar, bargikaram, bahriddil, obihayot, obizamzam, obiravon, margimush, mardikor, taxtiravon* kabi so'zlarda -i (-yi) izofiy ko'rsatkichi saqlanadi.

"Joy nomlarining qisqacha izohli lug'ati"da shunday joy nomlari uchraydiki, ularning aksariyatida izofiy bog'lanish mavjudligini kuzatish mumkin. Birgina *ob(suv)* so'zi bilan bog'liq joy nomlariga quyidagilar misol bo'ladi: *Obigarm, Obizarang, Obirahmat, Obixingov, Obiqaysar* kabi [8, 109].

Alisher Navoiyning "Saddi Iskandariy" dostoni Sharqda yaratilgan iskandarnomalarining eng mashhuri, eng jozibadori desak, mubolag'a bo'lmaydi "Saddi Iskandariy"da Iskandar va Arastu misoldida Navoiy tafakkurining badiiy ifodasi muhim o'r'in tutgan. Shuningdek, turli rivoyatlar ham asar mag'zini to'ldirishga xizmat qilgan. Xususan, Iskandarning darvesh bilan qilgan suhbatasi asar g'oyasini ochishga xizmat qilgan. Bu dostonda Navoiy faylasuf olim, yetuk pir, dunyo asrorlaridan xabardor hakim sifatida namoyon bo'lgan [6, 147].

"Saddi Iskandariy"da yozilishicha, Qirvon o'lkasida bir tog' bor, uning ortida vodiylar bo'lib, u yer ya'jujlar makoni, bu vodiyyadan so'ng zulmat boshlanadi. Ular Allohnning qahridan yaratilgan bo'lib, ko'p ellarga zulm qiladi, sonlari hisobsiz, qilmishlari ham boshqalarnikiga o'xshamaydi [5, 132].

Biz ushbu maqolada "Saddi Iskandariy" dostonini tilshunoslik nuqtai nazaridan o'rganish bilan bog'liq dolzarb muammolardan bo'lgan forsiy izofa Alisher Navoiyning deyarli barcha asarlarida uchrashini alohida ta'kidlab o'tmoqchimiz. Xususan, "Saddi Iskandariy" dostoni forsiy izofalarga ham juda boy asardir. Ma'lumki, "izofa" arabcha so'z bo'lib, "qo'shish, orttirish" degan ma'nolarni ifodalaydi. Izofa aniqlovchi va aniqlanmish, qaratqich va qaralmish o'rtasidagi munosabatni ifodalaydi [1, 261]. Bunda aniqlovchi va aniqlanmish, qaratqich va qaralmish o'rtasida urg'usiz -i yoki -yi tovushi orttiriladi. Masalan, o'zbekcha-forscha so'zlardan tashkil topgan izofiy birikmalarga *kimsayi notavon, telbai sarson, tarkibi tojikcha so'zlardan iborat bo'lgan izofiy birikmalarga ganji bebaho, obi diyda, padari buzrukvor, donasho'ra, kulbayi vayrona kabilarni misol keltirish mumkin* [2, 102].

Izofa ishtirok etgan baytlarga quyidagilarni misol keltirish mumkin:

Yana dashtining sathi andoq vase'

Ki, yetmay qirog'ig'a charxi sare' (41-bet).

Ma'nosi: "Endi undagi dashtu sahrolarga kelganda, sathi shunchalik keng ediki, uning chegarasiga tezyurar osmon ham yetolmas edi" (Saddi Iskandariy, nasriy tabdil, 44-bet).

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Абдувалиева Д. Алишер Навоий тарихий асарлари лексикаси. Ф.ф.ф.д. (PhD) диссертацияси автореферати.-Тошкент, 2017. С.-48.
2. Абдурахмонов F., Шукуров Ш. Ўзбек тилининг тарихий грамматикаси.-Тошкент: Ўқитувчи, 1973. -Б.110.
3. Alimova, Z. V. (2021). ABOUT COMMON WORDS IN UZBEK AND TAJIK LANGUAGES, THEIR SEMANTICS. *Theoretical & Applied Science*, (5), 101-104.
4. Alimova, Z. V. (2019). BORROWINGS-LINGUISTIC PHENOMENA. *Theoretical & Applied Science*, (4), 367-370.
5. Alimova, Z. V. (2021). The role of borrowings in the growth of language vocabulary. *Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR)*, 10(3), 261-267.
6. Vakhobovna, A. Z., & Xayrulloevich, F. X. (2022). About Borrowing Phrazeological Units and their Study in Uzbek Language. *International Journal of Culture and Modernity*, 14, 61- 67.
7. ALIMOVA, Z. (2018). On the Uzbek loan-words with prefix no-from the Persian-Tajik languages. *Scientific journal of the Fergana State University*, 1(5), 109-112.
8. Дўсимов З., Эгамов Х. Жой номларининг қисқача изоҳли луғати.-Тошкент: Ўқитувчи, 1977.-Б.109-110.
9. Навоий А. Танланган асарлар. Мажолис-ун нафоис. Муҳокамат-ул луғатайн. III том. –Тошкент: Ўзбекистон давлат нашриёти, 1948.
10. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. З жилд.-Тошкент: Университет, 2009.
11. Сирожиддинов Ш, Юсупова Д, Давлатов О. Навоийшунослик (1-китоб), -Тошкент: "Тамаддун", 2018. С.150.
12. Турсунов У, Ўринбоев Б., Алиев А. Ўзбек адабий тили тарихи.-Тошкент: Ўқитувчи, 1995. –Б.264.
13. Умарова Н. Навоий ғазаллари мақтасида сабаб ва оқибат муносабатининг мазманий ҳамда конструктив шакллари.-Тошкент: Академнашр, 2016. -Б. 24-25.
14. Ҳожиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. –Тошкент: Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси, 2002.-Б.21.
15. Z.Alimova. (2024) Navoiyning "Saddi Iskandariy" dostonidagi forsiy sinonimlar xususida. Farg'ona davlat universiteti. Ilmiy Xabarlar. 362-367.
16. Z.Alimova, M.Rasulova. (2024) O'zbek tilining forsiy til bilan aloqasi xususida. Farg'ona davlat universiteti. Ilmiy Xabarlar. №1. 387-389.
17. A.Z. Vaxobovna. (2024) The phenomena of derivation in English. Western European Journal of Linguistics and Education 2 (5), 300-306.
18. A.Z. Vaxobovna.(2024) About the lexical meanings of some Persian synonyms in Navoi's epic "Saddi Iskandari". International Multidisciplinary Journal for Research & Development 11 (01).
19. Z.Alimova. (2023) Alisher Navoiyning "Saddi Iskandariy" asaridagi ayrim forscha qo'shma so'zlarning leksik-semantik xususiyatlari xususida. Farg'ona davlat universiteti. Ilmiy Xabarlar. № 2. 639-643.